

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKUL`TETI

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» ta`lim yo`nalishi

«Tasviriy san`at tarixi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu ` XIX –ASRDA EVROPA BADIY SAN`ATI. FRANTsIYa
TASVIRIY SAN`ATI

Bajargan` IV-Kurs talabasi

Ya.Baxiev

Qabul qilgan:

T.Urazimova

Nukus–2014

XIX –ASRDA EVROPA BADIY SAN`ATI. FRANSTIYA TASVIRIY
SAN`ATI

ReJA :

Kirish

1.XIX –asrda Frantsiya badiiy san`atida yuzaga kelgan uslubiy
yo`nalishlar

2. XIX-asr Frantsiya tasviriyl san`ati vakillari hayoti va ijodi

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

«Biz Vol`ter va Russoning o`lmas merosini, frantsuz adiblari Bal`zak, Zolya asarlarini o`zbek tilida o`qib, taxsin aytamiz. Frantsuz rassomlari Renuar, Gogen chizgan suratlarni ko`rib zavqlanamiz. Jorjd Beize, Moris Ravel`, Klod Debyussining mislsiz musiqasi, Edit Piaf, Sharl` Aznovurning ajoyib ovozi ko`plab O`zbekistonliklarni maftun qiladilar».

I.A.Karimov (1993 yil, Parij).

Prezidentimiz I.A.Karimovning yuqoridap bildirgan fikrlaridan Frantsiya san`ati va unda barakali ijod qilgan san`atkorlar, nafaqat evropada, balki jahon san`atida tutgan o`rni beqiyos ekanini ko`ramiz. evropa san`ati tarixiga nazar solar ekanmiz, Frantsiya badiiy san`ati, shu jumladan uning tasviriy san`ati, evropa badiiy san`atida ko`plab yutuqlarga erishgan.

XIX –asrga kelib Frantsiya hayotida burjua inqilobi yuz berdi. Shu davrda bu erda demokratik harakatlarning o`sib borishi, bir qator sodir bo`lgan xalq g`alayonlari, ishchilar sinfining katta kuch ekanligini ko`rsatib, davlapt siyosiy tuzumini larzaga keltirdi. 1830-yili, 1848-yili tashkil topgan Parij kommunasi ommaviy harakati kabi ozodlik harakatlari evropaning qator davlatlarida ham milliy ozodlik harakatining kuchayishiga olib keldi. Uning ta`sirida san`atda ham qator o`zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog`liq bo`lib, ular ijodkorlar dunyoqarashining shakllanishida muxim rol` o`ynadi.

Mavzuning dolzarbligi: evropa badiiy san`atining XIX-asr tarixini o`rganish orqali biz shu yillari Frantsiyaning madaniy hayotda etakchi o`ringa chiqqanini ko`ramiz.

Ishning maqsadi va vazifalari : Shu davrga kelib badiiy san`at vakillari, san`atning g`oviy-badiiy mazmunini o`zgartiradi. XIX-asr boshlarida rassomlar ijodida ishchilar inqilobi bilan bog`liq asarlar paydo bo`la boshladi.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti :** Ob`ekti-san`at asarlarining mafkuraviy jihatiga e`tibor kuchayib, predmeti – rassom va san`at naxariyotchilari san`atining zamon va ijtimoiy hayot bilan aloqasini, sodir bo`layotgan muhim voqea va hodisalarni real shaklda ifodalash, yangi badiiy til ustida izlanish masalasiga e`tibor berdilar. Milliy san`at va madaniyat yaratish ishtiyoqi san`atkorlarda o`z xalqi tarixiga, tevarak atrofdagi hayotga, tabiatga murojaat qilish istagini kuchaytirdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi : Bu davr badiiy san`atining xarakterli jihati shundaki, bu davrda Frantsiya san`atida bir qator uslubiy yo`nalishlar shakllandi va rivojlandi. Bu birin-ketin paydo bo`lgan oqimlar davr qo`ygan masalalarni keng va atroflicha yoritishga intilish sifatida maydonga keldi.

1.XIX –asrda Frantsiya badiiy san`atida yuzaga kelgan uslubiy yo`nalishlar

XVIII asr oxirida burjua inqilobi evropa tarixida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, u san`at taraqqiyotida ham muxim yangi o`zgarishlarni yasadi. Inqilobga tayyorgarlik yillaridav san`at muhim rol` o`ynadi.

Shu yillari evropa tasviriy san`atidagi klassitsizm uslubi o`zining to`liq mohiyatini ko`proq Frantsiyada namoyon qildi. Klassitsizm vakillari bu erda inqilobiy mazmun bilan ishlangan asarlar yaratdilar, bu asarlar orqali burjuaziya inqilobi g`oyalarini ommaga targ`ib etishdi. Klassitsizm uslubi inqilob arafasida burjua inqilobiy g`oyalarini ifodalovchi badiiy yo`nalish darajasiga ko`tarildi.

Klassitsizm vakillari o`z obrazlarini aniq, jiddiy, yorqin bo`lishiga e`tibor berdilar. Ular antik san`at asarlari, ayniqsa haykaltaroshlik shakllarini taqlid namunasi qilib oldilar va o`z ijodlarida undan foydalandilar. Inqilobiy klassitsizmning eng yaxshi namunalarida rassomlar real hayot ruhini ko`rsatishga muyassar bo`ldilar. Bu yillarda grafika, ayniqsa, uning satirik ko`rinishlari keng yoyildi.

Grafika asarlarida tarixiy voqealar o`zining badiiy ifodasini topdi. Inqilob yillapri bayramlar munosabati bilan ko`cha va maydonlarni bezash san`ati paytsdo bo`ldi. Bu san`atdan ko`zda tutilgan maqsad inqilob g`oyalarini xalq ommasiga etkazish edi. Muzeylar xam shu maqsadga bo`ysundirilib, ulardan inqilob yutuqlarini mustahkamlashda foydalanildi.

XIX asrning boshida klassitsizm o`zining g`oyaviy kuchi va ta`sirchanligini yo`qota boshladi va u rasmiy akademik san`atga aylanib qoldi. Ana shu akademizm uslubiga qarshi kurashda yangi romantizm uslubi rivojlandi. Uning eng gullagan davri XIX asrning 20-30- yillariga to`g`ri keladi.

Romantizm vakillari, klassitsizm vakillaridan farqli shundaki, ular real voqealikka ko`proq e`tibor berdilar. Ular ijodida, o`rta asr tarixi, o`z xalqining o`ziga xos hayoti va ijod manbaiga bo`lgan tabiat ko`rinishlari o`z ifodasini topdi. Romantizm vakillari voqelikni yorqin ranglar orqali harakat vaqtida tasvirlashga alohida ahamiyat qaratdilar.

XIX asr o`rtalariga kelib Frantsiya san`atida realistik yo`nalish etakchi bo`la boshladi. Uning rivojlanishi esa bevosita burjua demokratik inqilobi va

milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi bilan bogʻlanib ketdi. Koʻpgina ijodkorlar shu jarayonda faol qatnashdilar, koʻrgan voqealarni haqiqatga yaqin qilib ishlashga intildilar. Natijada, sanʼatda tanqidiy yoʻnalish kuchaydi. Yaratilgan asarlarda ijtimoiy nohaqlik, kishilarning turmushini koʻrsatish, hukmdor sinf kirdikorlarini ochib tashlash asarlarning mazmuniga aylandi. Oddiy xalqning mehnati va xayoti, shu asr sanʼatining mazmunini tashkil etdi. Dehqon hunarmand va ishchilar esa sanʼat asarlarining bosh qahramonlariga aylandi.

Frantsiya tasviriy sanʼati tarixida XIX asrning 30-40-yillarida «Barbizon maktabi» iborasi paydo boʻldi. Milliy realistik manzara sanʼati rivojida Parij yaqinidagi Barbizon va uning atrofiga yaqin erlarni, Fontenblo oʻrmonini oʻzlariga sevimli maskanga aylantirgan rassomlar ijodi muxim rol oʻynadi. Ular oʻz yurtlarining tabiatini kuzatishva uni chuqur oʻzlashtirish asosida hajm jihatidan katta boʻlmagan manzara janriga xos asarlarni yaratib, tabiat goʻzalligini koʻpchilikka koʻz-koʻz qilib, oʻzlarining yurtga muxabbat va hurmatlarini ifodaladilar. Ular manzara sanʼatida oʻzlarining his-tuygʻu va kayfiyatlarini ham ifodalashga intildilar. Ular bevosita tabiat qoʻynida asarlar yaratdilar.

«Barbizon maktabi» iborasi xam shu er nomidan olingan. Bu maktab vakillari ijodiga xos xususiyat ona yurt tabiatining goʻzalligini kuylash, kishilarda unga nisbatan muhabbat uygʻotishga qaratilganligidadir. Ularning asarlari bevosita hayotning oʻzidan olinganligi ham kompozitsiya va koloritining tabiiy xamda nu rva havoga boyligi bilan oʻziga xoslik kasb etadi.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Frantsiyada yana bir yirik oqim «Impressionizm» yoʻnalishi shakllandi. 1874-yili «Xoʻrlanganlar» asarlari nomli koʻrgazma ochildi. Unda hamma koʻrib, koʻz oʻrgangan sanʼatga oʻxshamaydigan, bir qarashda haqiqiy sanʼatga zid boʻlgan rasmlar qoʻyilgan edi.

Burjua jamoasining katta qismi bu rasmlarni norozilik bilan kutib oldi. Dastlab bir guruh rassomlarning ijodini taʼriflash uchun ishlatilgan bu ibora

keyinchalik haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va san'atning boshqa turlariga nisbatan kam qo'llana boshladi. Bu uslub o'z mazmuniga ko'ra realistik bo'lib, uning imkoniyatlarini yanada boyitdi. Impressionist rassomlar o'z tevarakatofida sodir bo'layotgan voqealarga qahvaxona, xiyobonlardagi hayotni tasvirladilar. Tabiatning tez o'zgaruvchan holati (erta, peshin, kech, nam xavo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun kabi), shaharning jo'shqin va gavjum xayotri lavhalari rassomlarni qiziqtirdi. Rassomlar rang surtmalaridan erkin va unumli foydalanishga harakat qildilar. Natijada, rang surtmalarining kompozitsiyalari borliq to'g'risida, uning tbuyumlari to'g'risida umumiy tasavvur beruvchi vositalaridan biriga aylandi. Impressionistlar ijodining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular o'z politralaridan qora bo'yoqlarni chiqarib tashladilar, toza spektr ranglari orqali hayotdan, tabiatning o'zidan olayotgan taassurotlarini ifodalashga harakat qildilar. Naturaning o'zidan plenerda rasm ishlash ularning asosiy ijodiy uslubiga aylandi. Bu ularning politralarini yanada boyitdi, ishlagan asarlarning ta'sirchanligini yanada kuchaytirdi. Impressionistlar san'at tarixida novator rassom sifatida namoyon bo'lishdi. Ular o'z asarlarida quyosh nuri, yangi maysa tiniq suv go'zalligini mahorat bilan tasvirladilar, gullarni, olamning rang-barangligini ifodaladilar, voqealarni chuqurroq his etishga da'vat qildilar. Lekin ularning ijodida ijtimoiy masalalariga bag'ishlangan, davrning muhim muammolariga jamoatchilik e'tiborini qaratgan asarlar kamayib ketdi. Ko'pgina rassomlar naturaning o'zidan ishlagan etyudlarida o'z kechirmalarini ifodalash bilan chegaralanib qola boshladilar.

Bu ularning ijodining cheklangan jihati edi. Impressionizm XIX asrdagi yirik badiiy yo'nalishlardan biri edi. U qotib qolgan, dogmatik akademik-salon san'atiga zid ravishda maydonga keldi va rivojlandi. Bu yo'nalish vakillari san'atda ifoda vositalarining ta'sirchanligini oshirishga, bevosita zamonaviy voqealar mohiyatini ochishga, borliqni chuqur bili shva o'zlashtirishga da'vat etdilar. Frantsiyada shakllanib kamol topgan bu yo'nalish tezda evropa, Amerika, osiyo san'atiga ta'sir qildi. Bu yo'nalish realistik san'at

imkoniyatlarini yanada boyitdi, rassomlarni yangi-yangi izlanishlarga chorladi, turli oqim va guruhlar paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi.

1880-1890-yillarda frantsuz san'atida qator yo'nalish va oqimlar paydo bo'ldi. Ularning ko'pchiligi impressionistlarning tajribalariga asoslangan edi. Shu yillari paydo bo'lgan yana bir uslub puang, ya'ni, nuqta, to'xtalish uslubi yoki puantizm uslubi bo'lib, uning vakillarini esa puatelistlar deb yuritila boshlandi.

Puatelistlar asarlarini kichik kubsimon yoki yumaloq nuqta shaklidagi spektr rang surtmalarida ishlab, ularni bir-biriga tekkizmaslikka harakat qildilar. Bu rang surtmalari alohida-alohida bo'lib, optik qo'shiligi hisobiga yangicha yaxlit rang tizimini yaratadi. Bunday asarlar ma'lum masofadan idrok etish uchun mo'ljallangan.

Puantilizm uslubi yana divizionizm (frantsuzcha) «ajratish» deb ham yuritiladi.

«Postimpressionizm». Bu ibora shartli bo'lib, odatda, impressionizmdan keyin yuzaga kelgan va uning yutuqlarini o'zlashtirgan holda, san'at tarixida o'z yo'llarini belgilab olgan rassomlar ijodini ta'riflash uchun qo'llanildi. Bu ijodkorlar impressionistlarning yutuqlarini e'tirof etganlari holda, voqealikni etyudnoma ishlashga, tasviriyot asosi bo'lgan qalamsuratga e'tibor bermaslikka, ijtimoiy mavzulardan qochishga qarshi chiqdilar.

XIX –asr frantsuz tasviriy san'atidagi bu yo'nalishlarning shakllanib rivoj topishida, o'z qissalarini qo'shib beqiyo asarlar yaratgan ko'plab rassomlarni atab o'tishimiz mumkin.

2. XIX-asr Frantsiya tasviriy san`ati vakillari hayoti va ijodi

Burjua inqilobi yillar ijod qilgan rassom Jak Lui David (1748-1825). Inqilobiy klassitsizm yo`lboshchisi inqilobiy hukumat a`zosi Jak Lui David birinchi bo`lib, ilg`or g`oyalarni san`at orqali talqin etishga intildi. U antik san`ati shakllariga murojaat qildi. Bu xususiyat uning ijodida inqilobga qadar shakllangan edi.

David ijodining cho`qqisi «Maratning o`limi» (1793) asaridir. XVIII asr evropa tasviriy san`atining nodir namunasiga aylangan bu asarida rassom frantsuz inqilobining dohiysi Maratning o`ldirilishini tasvirlaydi. Mazkur voqeani u yuksak badiiy obraz darajasiga ko`taradi. Unga inqilobiy ruh beradi. O`z davrining ideal kishisi obrazini yaratadi. «Maratning o`limi» inqilob qurbonlari uchun yaratilgan yodgorlik sifatida ommani inqilobiy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi, ularni kurashga chorlaydi.

Klassitsizmning yana bir yirik vakili, uning yoʻlboshchisi Davidning shogirdi Jan Ogyust Domenik Engr (1780-1867). XIX asr evropa sanʼatining koʻzga koʻringan rassomlaridan hisoblanadi. U oʻz obrazlarini eski ustalar yaratgan obrazga oʻxshatish bilan birga ularga xotirjamlik va garmonik nafislik kiritadi, nozik nur-soya hisobiga ularning hajmini oshiradi, silliq chiziqlar plastikasidan foydalanadi. Bular uning asarlariga oʻziga xos ohang beradi. Ideal shakl va plastik goʻzallik uning ijodiy izlanishlari asosini tashkil etadi. Bu xususiyat «Gomer alofezi» (Gomerning tantanasi), «Buloq» kartinalarida namoyon boʻladi. Jumladan «Buloq» deb nomlangan asari yaxlit rangda ishlanishi, gavda plastikasi goʻzalligini yuksak tasvirlay olishi xamda chiziq ritmikasing taʼsirchanligi bilan diqqatni jalb etadi. Engr ijodida portret muhim oʻrin tutadi. U oʻzini tarixiy janrda ishlovchi rassom deb hisoblab, portretlariga ikkinchi darajali deb qarasa ham, uning qalam va moyboʻyoqda ishlangan portretlari, musavvirning tevarak atrofni ziyrak idrok eta olishi va voqelikni chuqur his etib, tasvirlay olishini koʻrsatadi. Engr ijodining bu xususiyati uni realist rassom sifatida tanitadi. Ayniqsa, qalamda chizgan portretlari, uni portret qalamsurat sanʼatining ustasi ekanligidan dalolat beradi. Uning «Rivʼer xanim portreti» (1806) da nafis chiziqlar oʻyini, ranglar silliq surtmasi, kompozitsiyaning ifodaliligi asarning badiiy taʼsirchanligini kuchaytiradi. Yosh juvonning xumor boqishi, uning aqlli koʻzlari, oʻzini erkin va tabiiy tutishida ayollarga xos nazokat va goʻzallik poetik talqin etilgan. Uning «Katta Lui Fransua Berden portreti» da (1832) esa, oʻz kuchiga ishongan, aqlli, ishbilarmon, koʻpni koʻrgan shaxs qiyofasi gavdalanadi. Bu xususiyat portretlanuvchilarning qoʻllari holati va qarashida namoyon boʻldi. Engr frantsuz klassitsizmining soʻngi vakillaridan edi. Davidning sevimli shogirdi boʻlgan bu sanʼatkor butun umri davomida shu oqimga sodiq boʻlib qoladi.

Teodor Jeriko (1791-1824). Romantizm yoʻnalishining oʻziga xos jihatlari uning yirik vakili va asoschilaridan biri Teodor Jeriko ijodida oʻz ifodasini topdi. Uning «Meduza soli» kartinasi shu yoʻnalishning oʻziga xos asarlaridan biridir. Bu kartinada boʻlgan voqea – «Meduza» kemasining Atlantika okeanida

falokatga uchrashi hikoya qilinadi. Rassom bo`lib o`tgan voqeani tasvirlar ekan, bu orqali dastlab, hukumat rahbarlarini tanqid qiladi, ularning ochiq kenglikda suvzishga tayyor bo`lmagan ekspeditsiyani chikarganliklarini qoralaydi.

Ejen Delakrua romantizmning yana bir yirik vakilidir. Uning «Borrikadagi ozodlik» (1831) polotnosi ham bevositav aniq voqeani aks ettirishga qaratilgan asar bo`lib, u 1830 yil iyun` oyidagi inqilob ta`sirida yaratilgan. Rassom inqilobda qatnashgan kishilar obrazini chizgan.

Rassom asarda bo`layotgan jangning shiddatini, qizg`inligini, bu inqilobda xalqning hamma tabaqasi qatnashganini (ziyoli, ishchi, qari va yosh), bu xalq inqilobi ekanini ishonarli ko`rsata oladi. Qo`lida bayroq ushlagan ayol siymosi ozodjlik ramzi bo`lib, qolganlar esa unga intilgan. Ularni ozodlik ramzi olg`a boshlamoqda.

Onoro Dom`e (1808-1879). Ijodiy faoliyati davomida burjua tartiblariga qarshi kurashgan Dom`e o`z asarlarida odamlar orasidagi samimiy munosbaatni ulug`ladi. Burjua parakondaligini, uning ikki yuzlamachiliklarini tanqid qiladi, tevarak-atrofga befarqlikni qoralaydi. Dom`e o`z ijodini hajviy suratlar bilan boshladi. Satirik portretlar, mavzuli kompozitsiyalar chizdi. «Qonun chiqaruvchilar uyasi» (1834) uning shunday asarlaridan biridir. Unda deputatlarni palata majlisi vaqtida tasvirlab, ularning har birining o`ziga xos qiyofasini ochib berishga harakat qiladi. Tasvirlangan qiyofalarning hammasida, umumiy o`xshashlik atrofga befarqlik, ma`naviy tubanlik, aqliy zaiflik ko`rinadi. Davlat arbob degan oliy nomga bularning hech qanday aloqasi yo`qligi ko`rsatiladi.

Dom`e ijodida satirik yo`nalish bilan birga, qahramonlik mavzusi ham muhim o`rin egallaydi. U o`z e`tiqodiga ishongan jasur ishchilar sinfi vakillari obrazini, demokratik erkinlikni yoqlab chiqqan yo`qsillar siymosini ham yaratdi («Matbuot erkinligi», 1834).

186-yil o`rtlaridan boshlab, Dom`e rangtasvirga ham murojaat qila boshladi. O`z rangtasvirlarida oddiy xalqning kundalik turmushi, mehnati, o`z erki uchun olib borgan kurashini ko`rsatadi. Oddiy mehnatkash xalq obrazini

muhabbat bilan tasvirlaydi, ularga o'z xayrixohligini bildiradi («Kir yuvuvchi», «Uchinchi tabaqa vagoni passajirlari»). Dom'e ijodi tanqidiyts realizm san'atining rivojlanishiga ayniqsa, satirik grafika va karikatura taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi.

Teodor Russo (1812-1867) barbizon maktabining taniqli vakilidir. U tabiatni tinch, osoyishta ko'rinishda tasvirlaydi. Bu rassom katta ochiq kengliklarni, o'rmon chekkalarini, baquvvat kuchli ildizlari bilan erga yopishib olgan katta eman daraxtlari tanasini goh ochiq quyosh nuriga cho'mgan paytda, goh kun botish oldidagi ko'rinishlarni tasvirlashni sevadi.

Jyul` Dyupre (1811-1889) asarlarida esa tabiatdagi notinchlik besaranjanlilik ifodalanadi. Rassom momaqaldiraq va chaqmoq chaqish paytidagi tabiat ko'rinishlarini, botayotgan quyosh nurlarining otish harakatini aks ettiradi, hovuzlar, ko'llar tasvirini ishlaganda ham ularning yuzasida osmonda suzib borayotgan bulutlar aksini ko'rsatadi. Ertalabki kuch chiqishi, sokin kechki payt poeziyasi Sharl` Fransua Dobin`i (1817-1878) ijodida ham o'z ifodasini topdi. Rassom daryo qirg'oqlarini tasvirlashni sevadi.

Barbizon maktabining yana bir vakili Nartsiss Diaz (1807-1876) quyuq o'rmonzorlar ko'rinishi, ulardagi so'qmoq va maydonlarni tasvirini ishlaydi. Uning manzaralari birmuncha yorqin va dekorativdir, quyuq daraxtlar orasidan tushayotgan quyosh nurlari uning asarlaridagi ranglar ziddiyati Troen (1810-1865) manzaralari esa hayvonot olami bilan to'ldirilgan va ular tabiatning ajralmas qismi sifatida undagi manzaralarga yanada fayzk iritadi. Frantsuz manzara rassomligida Kamil` Koro (1796-1875) ijodi alohida o'rinni egallaydi. U tabiatning realistik umumlashma obrazini yaratib, unda o'z kechirma va kayfiyatlarini ifodalashga harakat qiladi. Rassom asarlari uchun nurni asosiy ifoda vositasi sifatida qo'llaydi. Nur uning asarlarida tekis va mayin tarqaladi. Rassomning ilk asarlarida shahar manzarasi hamda me'morchilik obidalari tasvirlangan. Bu asarlarida rassom fazoviy kenglikni tasvirlashga predmetlar hajmini ko'rsatishga harakat qilgan. Aniq rang kontrastlaridan foydalangan. Bu ranglar odamlar qiyofasini, asar kompozitsiyasini to'ldirib, shahar hayotini real

ifoda qiladi. Vaqt o'tishi Bilan Koro ranglarni keskinlashtirishdan chekinadi. Ranglar orasidagi bog'lanishni Mayin va nozik ifodalashga o'tadi. Rassomni bu paytgak elib, qishloq manzarasi ko'proq o'ziga jalb qiladi. Parij atrofidagi tabiat ko'rinishlari, fontenblo o'rmonlari uning asarlarida o'z ifodasini topa boshladi. Uning manzaralari sokin, osoyishta ko'rinishi bilan kishiga engil lirik kayfiyat baxsh etadi. Rassom Valer rangtasviriga (bir rangning nu rva soya hisobiga tuslanishi) ko'proq e'tibor beradi. Asarlarini tong yoki kun botishi paytida ko'proq ishlaydi. Tabiatdagi namgarchilikni, qurg'oqchilikni ustalik bilan tasvirlaydi. engil mayin shabada, erta bahor payti zo'r mahorat bilan ifodalanadi. «Shamol to'zoni» (1860) deb nomlangan manzarasida yomg'irdan keyingi holat –nam, lekin toza havo, yo'llarda to'planib qolgan ko'lmak suvlar, osmondagi bulutlar harakati rassom tomonidan aniq va ta'sirchan tasvirlangan. Koro portretchi sifatida ham mashhurdir. U o'z portretlarida san'atning gumanistik an'alariga asoslanadi. Uning ilk asarlarida shaklning aniq tugal, obrazlarining hajmli bo'lishiga e'tibor beradi. Ijodining gullagan davridagi yaratgan asarlarida ranglar Mayin, jilvador. Ular kishida lirik kayfiyat uyg'otadi.

Oddiy xalq hayoti va mehnatini tasvirlash yirik frantsuz rassomlari F.Mille va G.Kurbe asarlarining mazmunini tashkil etadi. Millening mashhur asarlaridan biri uning «Boshqoq yig'uvchi ayollar» (1857) kartinasidir. O'rimdan keyin dalada qolgan bug'doy boshqoqlarini yig'ayotgan ayollar tasvirida dehqon mehnatining mashaqqati ko'rsatiladi. G.Kurbe esa o'z asarlarida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ochib berishga intiladi. U XIX asr G'arbiy evropaning yirik san'atkoridir. «Demokratik san'at yo'li realizmdir» - degan edi Kurbe. U o'zining shu so'zlariga umrining oxirigacha sodiq qoldi.

Kurbe faqat o'zi bilgan, uni o'rab turgan voqealarngi tasvirladi. «Ornandagi ko'mish marosimi» kartinasi shunday asarlaridandir. Kartina syujeti bevosita voqelikning o'zidan ishlangan bo'lib, unda tasvirlangan har bir obraz rassomga tanish va ular o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxslardir. Rassom ularning xarakterini, bo'layotgan voqeaga munosabatini ko'rsatish hisobiga asar

g'oyasini inson qadrsizlanib borayotganini aniq ifodalab berishga muvaffaq bo'lgan. Kurbe ijodi keyingi davr realistik san'ati taraqqiyotiga katta ta'sir qilda.

Eduard Mane (1832-1883) keyingi davr realistik yo'nalish mohiyatini belgilaydi. Uning ijodi, bir tomondan XIX asr o'rtalarida frantsuz realistik san'ati an'analarini, ikkinchi tomondan, frantsuz san'atiga kirib kelayotgan yangi jarayonlarni mujassamlashtiradi. Mana ilk asarlaridan boshlab frantsuz realistik san'ati an'analarini davom ettirgan holda uni zamonaviy mazmun va ruh bilan boyitdi. «Maysazordagi nonushta» (1863), «Olimpiya» (1863 kabi asarlarida bu seziladi. Manening «Olimpiya» asari o'zining kompozitsion tuzilishi jihatidan avvalga rassomlar (M.Titsian, Jorjone, Goyya) kompozitsiyalariga o'xshaydi, lekin ruhan yangi davr mazmuni bilan sug'orilgan.

Klod Mone (1840-1926). Impressionizm maktabi yo'l boshchisi Klod Mone asarlarida buyumlar nu rva havoga o'ralib, o'z ko'rinishini beradi va ular ranglar garmoniyasiga aylanadi. Rassom bir ko'rinish yoki mavzuni qayta-qayta ishlaydi. Ularning turli payt va yorug'likdagi holatini rang va nur o'zgarishida tahlil qiladi. Mone toza ranglardan foydalangan holda, o'z palitrasidan qora ranglarni chiqarib tashladi. Soyalar ham rangli bo'lishini o'z asarlari ko'rsatib berdi. («Londondagi Temza va parlament ko'rinishi» (1871), «Parijdagi kaputsinklar xiyoboni» (1873), «Bel` –Il`dagi qoyalar» (1886) kabi rassom asarlari kompozitsiya jihatidan puxta o'ylangan, ularda ranglar mutanosibligi me'yoriga etkazilgan. Asardagi har bir rang surtmasi asar mazmunini ochishga xizmat qilgan.

Kamil Pissarro (1830-1903) ham impressionistik yo'nalishdagi izlanishlarini manzara janrida ifoda qiladi. uning hajman katta bo'lmagan manzaralari kompozitsiya jihatdan tugal, tabiat go'zalligi jonli va ta'sirli bo'lishigi erishilgan («Montartr xiyoboni», 1897).

P'er Ogyust Renuar (1841-1919) ham imperssionizmning yirik vakili. Uning ijodida portret etakchi o'rinni egallaydi. U o'smirlik yillarida chinniga gul solish bilan shug'ullanib, yiqkan gullarga Gleyr ustaxonasiga o'qishga kiradi. Shu erda K.Mone va A.Sisley bilan tanishdi. Renuarning ilk

asarlarida Kurbe ta'siri seziladi. Rassom kuchli yorug`-soya yordamida obrazlarning ifodali bo`lishiga erishadi.

1870 yildan boshlab, uning ijodida impressonistik yo`nalish kuchaya bordai, manzaralari yorqinlashib, kompozitsiyalarida nu rva havo ustivor bo`la boshladi. Asarlardagi nur va havo borliqni birlashtiradi va kompozitsiya tugalligini ta`minlaydi. Renuar obrazlarining murakkab psixologik holatlarini ochishga intilmasa xam, lekin ular da yoshlik, jismoniy go`zallik va xushchaqchqlik yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Ayniqsa u yaratgan ayollar obrazi nafis va latofatlidir. Aktrisa Samarii portreti uchun ishlangan etyudda rang gammasi juda nafis va jozibali. U asarlarning emotsionavl jihatini belgilaydi. Sarg`ish, qizil, pusht iva ko`kimtir yashil ranglar munosabati juda uyg`unlashib ketgan. Ishlash uslubi ham asarga o`ziga xos joziba baxsh etadi.

Edgar Dega (1834-1917) kundalik shahar hayoti, kibarlar, raqqosalar va musiqachilar turmushini tasvirlab ko`plab suratlar ishlagan. Kir yuvuvchilar, dazmol bosuvchilar hayoti to`g`risida qator kompozitsiyalar yaratgan. Ajoyib qalam qalamtasvir ustasi, o`z zamoni voqealarni to`g`ri his qila olgan rassom Dega realistik san`at an`analariga sodiq qolgani holda, uni impressionistlar yutuqlari bilan boyitdi. Uning kompozitsiyalari bir qarashda sodda tuyilishga qaramay, ular puxta o`ylangan va ma`lum g`oya va xis-tuyg`uni ifodalashga bo`ysungan. Har bir personaj tabiiy va erkin holda tasvirlangan. Ular o`z yumushlari, o`z tashvishlari bilan band.

«Raqs darsi mashg`uloti» (1874), «Fotograf oldida» (1897) kabi asarlari diqkatga sazovardir. Dega ijodida keyinchalik tushkinlik psimistik kayfiyatlari paydo bo`la boshlaydi. U hayotni bir tomonlama tasvirlashga, asarning normal – dekorativ jihatlariga e`tibor qaratadi. Rassom ko`proq pastel`da ishlaydi.

Ogyust Roden evropaning XIX asr ikkinchi yarm iva XX asr boshlaridagi yirik xaykaltaroshidir. Uning ijodi impressionistlar ijodi bilan yaqin. U rasmiy san`atdagi mavjud sxemalarni buzib, haykaltaroshlik san`atida yangi yo`llar ochdi. U o`z ijodida xalqparvarlik va qahramonlik g`oyalarini ulug`lash, inson ichki dunyosidagi, his-tuygularini ifodalashga intildi. Uning bu intilishlari

«Burni pachoqlangan kishi» (1864) haykalida namoyon bo`ldi. Unda xo`rlangan, lekin irodasi bukilmagan inson obrazi yaratilgan. «Bronza asri» (1876) asarida o`zini tanib, kuchiga ishonib kelayotgan, yangi hayotga kuchg`ayrat bilan kirishayotgan insonlar obrazi gavdalangan. Kompozitsiyadagi har bir obraz anatomik aniqlikda yuksak mahorat bilan ishlangan.

Roden ijodida 90-yillardan boshlab, tashqi go`zallikka e`tibor berish asosiy planga chiqa boshlaydi.

XULOSA

XIX –asr evropa badiiy san`atida, Frantsiya badiiy san`atining tutgan o`rni alohida bo`lib, shu jumladan uning tasviriy san`at vakillarining qo`shgan hissasi katta ahamiyat kasb etadi.

Biz ushbu kurs ishi orqali XIX asrda evropa badiiy san`atida, frantsuz tasviriy san`atining tutgan o`rnini, shu davrda shakllanib rivoj topgan badiiy

yo`nalishlarga, bu yo`nalishlarda ijod qilgan ijodkorlar, ularning ijodlari xaqida, asarlarning o`ziga xosligi haqida to`xtalib shunday xulosaga keldik.

Shuni aloxida aytib o`tish joizki, shu davrda birin-ketin paydo bo`lgan bu badiiy oqimlar, davr qo`ygan masalalarni keng va atroflicha echishga muvaffaq bo`ldi.

San`atkorlar va tanqidchilar san`atning tarbiyaviy ahamiyatini birinchi o`ringa qo`ya boshladilar. «San`at hayot o`qituvchisi» bo`lish, jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi, ommaga tushunarli bo`lishi lozim degan fikr ham ilgari surildi. Shuning uchun bu davr san`atiga xos oqimlarda xayot haqiqati etakchi o`rinni egallaydi. Bu yo`nalishlarda ijod qilgan san`atkorlar ijodida, rassomlar asarlarida esa, o`sha davrning ziddiyatlari, odamlar orasidagi munosabatlar, o`sha davr madaniyatini yorqin va aniq tushunarli qilib ochib berishidir.

O`sha davrda frantsuz badiiy san`atda paydo bo`lgan oqimlar, bu oqimlarning yirik vakillari, ularning yaratgan beqiyos asarlari, hozirgi zamon badiiy san`atida o`ziga xos maktab vazifasini o`taydi.

Adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T-1996
2. Алпатов М.В., Растовтсев Н.Н. «Искусство (Живопись, Скульптура, архитектура, графика)». Ч-2.М., 1988
3. Abdullaev N. «San`at tarixi». T-1. T.,1986
4. Abdullaev N. «San`at tarixi». T-2/1. T., 2001
5. Всеобщая история искусств в 6 томах. М.1956-66

6.Дмитриева И. «Краткое история искусство». Вып-2. М.1991

7. Илина Т.В. история искусство зародноеевропейкое искусства.М., 2002

8.Калитиной Н.Н. Честота И.Д. «Проблемы изобразительного искусство XIX столетия». Вопросы отечественного и зарубежного искусство. Вып. 4. Ленинград., 1990

9. Новый энциклопедический словарь изовразительного искусство в 10-томах. М., 2006

10.Яковлева Н.А. Практикум по истори изобразительного искусства.М., 2002

